

## INGLIZ VA O'ZBEK TILIDAGI KONSEPTUAL METAFORALAR TARJIMASINING QIYOSIY TAHLILI.

Ollomurodov Arjunbek Orifjonovich

Osiyo xalqaro universiteti

Tarix va filologiya kafedrasini ingliz tili fani o'qituvchisi

*E-mail:* [ollomurodovarjunbekorifjonovich@oxu.uz](mailto:ollomurodovarjunbekorifjonovich@oxu.uz)

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10376897>

*Annotatsiya.* Metaforalar insoniyat tilshunosligining ilk davrlaridan boshlab keng ko'lamli ravishda ularning kundalik turmush tarzining ajralmas vositasi sifatida ishlatilib kelinmoqda. Ular har bir millatning milliy dunyo manzarasini, ularning milliy-madaniy qarashlarini hamda xalqning azaliy turmush tarzidagi tajribalarining mujassamlashgan belgisi sanaladi. Ushbu maqolada ikki til miqyosidagi konseptual metaforalarning o'xshash va farqli jihatlari, ularning turli millat kognitiv sathlarida qay tarzda namoyon bo'lishi qiyosiy tahlil qilinadi.

*Kalit so'zlar:* konsept, diskurs, konseptuallashtirish, kategoriyalashtirish, universal metaforalar, metaforik idrok, dunyo manzarasi.

## COMPARATIVE ANALYSIS OF THE TRANSLATION OF CONCEPTUAL METAPHORS IN UZBEK AND ENGLISH.

*Abstract.* Metaphors have been widely used since the early days of human linguistics as an indispensable tool of their daily life. They are considered to be an embodied symbol of the national worldview of each nation, their national-cultural views, and the people's experiences in the ancient way of life. This article compares the similar and different aspects of conceptual metaphors of two languages, how they are manifested at the cognitive levels of different nations.

*Key words:* concept, discourse, conceptualization, categorization, metaphor universals, metaphorical perception, world view.

## СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ ПЕРЕВОДА КОНЦЕПТУАЛЬНЫХ МЕТАФОР НА УЗБЕКСКИЙ И АНГЛИЙСКИЙ ЯЗЫКИ.

*Аннотация.* Метафоры широко использовались с первых дней человеческой лингвистики как незаменимый инструмент их повседневной жизни. Они считаются воплощенным символом национального мировоззрения каждого народа, его национально-культурных взглядов, опыта народа в древнем быте. В данной статье сравниваются сходные и разные аспекты концептуальных метафор двух языков, как они проявляются на когнитивных уровнях разных народов.

*Ключевые слова:* концепт, дискурс, концептуализация, категоризация, универсальные метафоры, метафорическое восприятие, картина мира.

Bugungi kunda muayyan etnos tilining kognitiv, lingvomadaniy, psixologik hamda pragmatik tomonlarini, shuningdek, olam manzarasini shakllantirishda metaforalarning o'zni beqiyosdir. Zamonaviy tilshunoslikdagi asosiy tahlil hamda tadqiq qilinuvchi vositalardan biri sifatida tanilgan metaforalar istalgan xalq mentalitetining ajralmas qismi va bo'lagi sanaladi. Metafora o'zi taalluqli bo'lgan tilning milliy madaniyatini bevosita aks ettiruvchi ekstralingvistik mazmun tashuvchisi hisoblanadi. Milliy-madaniy komponentni o'z ichiga olgan birlik

hisoblanuvchi metaforani tarjima qilish tarjimondan fon bilimlarini tadqiq etish, muayyan til egalari olam manzarasining o'ziga xos xususiyatlarini belgilab beruvchi madaniy, bog'lanishli assotsiatsiyalari kabi qatlamini chuqur o'rganish talab etiladi (Vejbiskaya, 2019). Metaforalar tarjimasining murakkabligi, ularda milliy xarakter, dunyoqarash va madaniyatning bir paytda aks etishidir. Tarjimashunos olimlar metaforalarni ikki tomonlama tushuncha sifatida namoyon etuvchi konseptual metafora nazariyasi integratsion yondashuv asosida tarjima qilish amaliyotini ijobiy baholashi tadqiqotimizda o'z isbotini topgan. Metaforalar qadimdan turlicha mazmun va ma'noda qabul qilingan. Metaforaning faylasuf olimlar tomonidan berilgan quyidagicha falsafiy-nazariy asoslari mavjudligi bir qator ishlarda dalillar vositasida aniqlangan:

1. Antik ta'rif: metafora nutq bezagi sifatida;
2. Metafora – inson tafakkurini o'lchovchi omil;
3. Chuqur semantik, kognitiv va pragmatik xususiyatga ega fenomen;
4. Metafora – uzoq yillar to'plangan tajriba va bilimlarning nutqda (so'z, jumla, gap yoki matn orqali) keng ma'noda qo'llanilishi.

Zamonaviy kognitiv tilshunoslik metaforaning qiyoslash usuli, nutqni bezash usuli degan an'anaviy ta'rifdan butunlay voz kechadi. Shuningdek, generativ tilshunoslikdagi N. Xomskiy, L.N. Murzin kabi olimlarning metafora bazaviy strukturalarining o'zaro ta'siri haqidagi ta'riflariga ham qo'shilmaydi. Zamonaviy kognitiv tilshunoslikning J. Lakoff, M. Jonson, N.Arutyunova, A.Baranov, Yu.Karaulov, V.Demyankov, Ye.Kubryakova kabi namoyandalari metafora olamni anglash, atrof-voqelikni tizimlashtirish va uni tushuntirish usulidir hamda metaforani kognitiv ongning asosiy mental operatsiyasi tariqasida o'rganish zarurdir, deb ta'kidlaydilar. Shu tarzda, ikki so'zning ma'nosini bog'laydigan metafora tasviriy vosita emas, balki ikki tushuncha maydonini birlashtiradigan va voqelik konseptualizatsiyasida manba doirasini shakllantirish imkonini beruvchi ongning asosiy amaliyoti (jarayoni)dir. Demak, metafora – bu, voqelikning spesifik konseptualizatsiyasi, inson tafakkuriga xos analogik imkoniyatlarning namoyon bo'lishidir. Inson nafaqat metafora vositasida fikrlaydi, balki metaforalar yordamida idrok qiladi, ular vositasida o'z olamini yaqqolroq ifodalaydi. Metafora ob'ektlarning bir sinfiga xos belgilarni boshqa ob'ektlar sinfiga yoki ulardan biriga – metaforaning asosiy (dolzarb) sub'ektiga mutanosiblikda tanlaydi. Metaforik ma'no uch komponentni bilishdan kelib chiqadi: denotatlarning ikki kategoriyasi va metaforizatsiya jarayonida tilga olingan denotat xarakteristikasi. Metaforada ishtirok etgan denotatlar kategoriyasining xarakteristikasi turli tillarda o'ziga xos ko'rinishda bo'ladi. Odatda, metafora til egalarining ushbu ob'ektlar kategoriyasi haqidagi umumiy, xususan, mifologik, madaniy, emotsional baholi konnotatsiyalarini o'z ichiga olgan tasavvurlari zaxirasiga oid bo'ladi (Guntekin, 2011, 2012). Zamonaviy tilshunoslikda esa metaforalarning antropotsentrik paradigmalar talqinidan kelib chiqqan holda tafakkur va inson omili bilan bog'liq xususiyatlari e'tibor markaziga qo'yilmoqda. Til va tafakkur masalalari inson ongida bilish jarayonlari bilan bog'liq yangi g'oyalar shakllanish mehanizmini aniqlashdagi ustuvor omildir. Metaforalar ingliz va o'zbek tilida bir qator mavzularda o'xshashlikni, universallikni yaratsa, bir qancha mavzularda umuman boshqa mazmun va ma'noni kasb etishi mumkin. D.Baxronovanning ta'kidicha, metafora metafora bo'lguncha, olamning oddiy manzarasidan to lisoniy manzaragacha "sayohat" qiladi. So'z birdaniga metaforaga aylanib qolmaydi. Shu sababli ular o'ziga tegishli jamiyatning "yuziga", madaniyatning kodiga aylanadi.

Jumladan, metaforalarni har bir millat maqol, matal va aforizmlarida, kundalik muloqatlarda qoʻllanilishi muayyan etnosgagina tushunarli sifatlarni, milliy-madaniy belgili kodlarni ifodalaydi (Baxronova, 2015).

Buni quyidagi misollarda atroflicha tahlil qilamiz.

He has made *the right* choice. - Он сделал правильный выбор - U toʻgʻri tanlov qildi. - U intixobidurust kard

Ushbu konseptual metaforalar tarjimasida “toʻgʻri” soʻzi “right”, “хороший”, ”durust” soʻzlari bilan mos kelib, turli tuzilmalarni hosil qiladi: right – в право- oʻng tarafga- ba tarafi rost; good – хорошо – yaxshi- hoʻp ; left – wrong = налево – плохо = chap – yomon = tarafi chap – bad. Ushbu konseptual metaforalarning hosil boʻlishi har qanday odamning chap yelkasida shayton va uning oʻngida esa farishta haqidagi gʻoyasi bilan bogʻliq boʻlib, asrlar osha insoniyat tarixidagi toʻgʻrilik hamda egrilik, yaxshilik va yomonlik oʻrtasidagi kurash haqidagi tushunchalariga borib taqaladi.

Tarjima nazariyasida metaforalarning tarjimasi oʻziga xos qiyinchilik talab etuvchi masalalardan biri hisoblanadi. Bu masalaga bagʻishlangan tadqiqotlar doimo dolzarblik hamda muhimlik kasb etadi, zotan, badiiy asar tarjimoni koʻpincha metaforalarni tarjimada Toʻgʻridan toʻgʻri berish borasida qiyinchiliklarga duch keladi. Sifatli tarjima namunasini amalga oshirish uchun tarjimon nafaqat oʻz ona tilining yetuk hamda malakali bilimdoni, balki tarjima nazariyasi boʻyicha zarur bilim hamda koʻnikmaga, amaliy tarjima qilish mahoratlariga hamda tarjima qilinayotgan asar xalqi madaniyati, turmush tarzi hamda etnosi haqida ham muayyan maʼlumotga ega boʻlishi zarur.

Koʻpchilik konseptual metaforalar universal boʻlib, ingliz va oʻzbek tilida bir xilda uchrashi mumkin. Tarjima jarayonida koʻzga tashlanadigan ushbu hollarni ikkala til misolidagi yaqqol misollarda koʻrib chiqamiz.

Masalan, “The career ladder - mansab pillapoyalari”

U mansab pillapoyalardan tezlik bilan koʻtarila boshladi. - He began to move up the career ladder very fast;

The heart of the problem- muommoning yuragi;

To shoulder a responsibility – masʼuliyatni yuklamoq;

The jacket I saw in the shop window pulled me into the store.- Doʻkon peshtaxtasida men koʻrgan nimcha meni u yerga tortdi.

Metaforani maʼlum bir millatning dunyoqarashini aks ettiruvchi unsurlardan biri sifatida baholanishi tarjimonlar zimmasiga yana bir muammoni – metaforalarni tarjima tilida qaytadan yaratish masalasiga yanada jiddiyroq yondashish masalasini qoʻyadi. Shunday ekan, muayyan bir turdagi metaforani oʻzga tildan oʻz ona tilisiga oʻgirar ekan tarjimon bir qancha qiyinchiliklarga duch keladi. Ushbu holatda esa tarjimon tarjimaning bor yogʻi bir usulidan emas, balki bir nechta uslublarini qoʻllagan holda yuksak mahorat bilan tarjima qilishiga toʻgʻri keladi. Malakali tarjimon vazifasi muallif gʻoyasini, muallifning reallik tasavvurini, individual mualliflik manazarasini – shaxsiy oʻziga xosligini koʻrish, xususan, metaforik idrokini qayta yaratib berishdan iborat. Bu maqsadga erishish uchun asl matndagi barcha komponentlarning strukturaviy-mantiqiy aloqalarini tushunish hamda tarjimada ularni ifodalash muhim ahamiyatga ega. Tajribali tarjimon muallif

maqsadini aynan aks ettirishga harakat qilishi, demak, matnning strukturaviy mazmuniy aloqalarini hamda mutanosib mental mazmuni faol saqlab qolishga intilishi kerak

#### REFERENCES

1. Бахронова, Д.К. (2015). Гендер и целевые концептуальные гендерные стереотипы // Гендерные исследования в гуманитарных науках: сб. ст. по матер. III междунар. науч.-практ. конф. № 3. – Новосибирск: СибАК, 2015.
2. Вежицкая, А. (2019). Семантические универсалии и описание языков. – Москва. – 776 с.
3. Güntekin, R. N. (2012). Dudaktan Kalbe. – Ankara: TDK. – 122 b.
4. Orifjonovich, O. A. (2023). The Main Features of Conceptual Metaphors in Modern Linguistics. American Journal of Language, Literacy and Learning in STEM Education (2993-2769), 1(9), 365-371.
5. Ollomurodov, A. (2023). CINEMA DISCOURSE ANALYSIS AND THEORETICAL FOUNDATIONS IN LINGUISTICS. Modern Science and Research, 2(10), 500-505.
6. Sulaymonovna, Q. N., Tashpulatovna, K. M., & Orifjonovich, O. A. (2023). COGNITIVE AND LINGUOCULTURAL CHARACTERISTICS OF. VOLUME, 3, 30-35.
7. Sulaymonovna, Q. N., & Orifjonovich, O. A. (2023). XOLID HUSAYNIYNING ASARLARI TARJIMALARIDA KONSEPTUAL METAFORALAR TALQINI VA.
8. Ollomurodov, A. (2023). MULTIDISCIPLINARY AND INTERDISCIPLINARY STUDY OF METAPHOR. Modern Science and Research, 2(9), 136-139.
9. Orifjonovich, O. A. (2023). METAFORANING KO'P TARMOQLI VA FANLARARO O'RGANILISHI.
10. Orifjonovich, O. A. (2023). KINODISKURS LINGVISTIK SISTEMANING BIR QISMI SIFATIDA. O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI, 2(23), 208-211.
11. Orifjonovich, O. A. (2023). Cognitive-Discursive Approach to the Analysis Of Film Discourse. International Journal Of Literature And Languages, 3(10), 25-31.
12. Sulaymonovna, Q. N., Tashpulatovna, K. M., & Orifjonovich, O. A. (2023). COGNITIVE AND LINGUOCULTURAL CHARACTERISTICS OF METAPHORS. Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities, 11(3), 849-854.
13. Sulaymonovna, Q. N., & Orifjonovich, O. A. (2023, May). XOLID HUSAYNIYNING ASARLARI TARJIMALARIDA KONSEPTUAL METAFORALAR TALQINI VA TAHLILI. In Integration Conference on Integration of Pragmalinguistics, Functional Translation Studies and Language Teaching Processes (pp. 147-150).
14. Sulaymonovna, Q. N., & Orifjonovich, O. A. (2022). KONSEPTUAL METAFORALARNING LINGVOMADANIY HAMDA KOGNITIV XUSUSIYATLARI VA TIL TARAQQIYOTIDA TUTGAN ORNI. Scientific Impulse, 1(3), 594-600.
15. Sulaymonovna, Q. N., & Orifjonovich, O. A. (2022). KONSEPTUAL METAFORALARNING LINGVOMADANIY HAMDA KOGNITIV

- XUSUSIYATLARI VA TIL TARAQQIYOTIDA TUTGAN ORNI. *Scientific Impulse*, 1 (3), 594-600.
16. Karimova, G. (2023). SKIMMING AND SCANNING. *Modern Science and Research*, 2(9), 334-335.
  17. Karimova Go'zal Ikhtiyorovna. (2023). MASTERING THE ART OF EFFECTIVE SPEAKING AND READING: STRATEGIES FOR IMPROVING SPEAKING AND READING SKILLS. *International Journal Of Literature And Languages*, 3(10), 32–38. <https://doi.org/10.37547/ijll/Volume03Issue10-06>
  18. Qurbonova N.R., & Karimova Guzal Ikhtiyorovna. (2023). DEVELOPMENT OF FANTASY GENRE IN 20TH CENTURY. *Intent Research Scientific Journal*, 2(5), 1–5. Retrieved from <https://intentresearch.org/index.php/irsj/article/view/68>
  19. Karimova, G. (2023). DEVELOPMENT OF FANTASY GENRE IN 20TH CENTURY. *Modern Science and Research*, 2(10), 67–71. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/25307>
  20. Karimova, G. (2023). DEVELOPMENT OF LITERARY CRITICISM IN ENGLISH LANGUAGE IN 20TH CENTURY. *Modern Science and Research*, 2(10), 411–413. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/25308>
  21. Adizovna, S. M. (2023). Code-Switching and Multilingualism: Exploring the Dynamics of Language use in Uzbekistan. *American Journal of Language, Literacy and Learning in STEM Education* (2993-2769), 1(9), 549-553.
  22. Shodieva, M. (2023). UNDERSTANDING SOCIOLINGUISTIC APPROACH IN THE ENGLISH CLASSROOM. *Modern Science and Research*, 2(10), 64-68.
  23. Maftunabonu, S. (2023). THE DIFFERENCE BETWEEN TRADITIONAL AND MODERN TEACHING METHODS. *Modern Science and Research*, 2(10), 829-831.
  24. Shodieva, M. (2023). MASTERING ENGLISH IN A MONTH: EFFECTIVE STRATEGIES FOR RAPID PROGRESS. In *Academic International Conference on Multi-Disciplinary Studies and Education* (Vol. 1, No. 19, pp. 83-87).
  25. Shodieva, M. (2023). DEVELOPING SUMMARY WRITING SKILL IN ACADEMIC WRITING. *Modern Science and Research*, 2(9), 140-144.
  26. Khalilova, K. (2023). GROUPING ACTIVITIES FOR ENGLISH LESSONS: FOSTERING COLLABORATION AND LANGUAGE DEVELOPMENT. *Modern Science and Research*, 2(10), 69–74.
  27. Xalilova, K., & Atoyeva, D. (2023). THE USAGE OF IDIOMS IN SPEAKING. *Modern Science and Research*, 2(9), 362-364.
  28. Khalilova, K. (2023). ACADEMIC VOCABULARY: HOW TO TEACH AND STUDY IT. *Modern Science and Research*, 2(9), 79-83.
  29. Khalilova, K. (2023). MASTERING READING COMPREHENSION: A VITAL SKILL FOR ACADEMIC SUCCESS. *Академические исследования в современной науке*, 2(23), 83-89.
  30. Rokhila Bafoeva 2023. The Concept of Education in English and Uzbek Proverbs. *American Journal of Language, Literacy and Learning in STEM Education* (2993-2769). 1, 9 (Nov. 2023), 292–296.

31. Bafoeva, R. (2023). NEW METHODS OF TEACHING FOREIGN LANGUAGES. *Modern Science and Research*, 2(10), 58-63.
32. Pirmanovna, N. G., & Bafoeva, R. (2022). NATIONAL AND CULTURAL PROVERBS IN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES AND THEIR UNIVERSAL FEATURES. *Новости образования: исследование в XXI веке*, 1(4), 500-503.
33. Pirmanovna, N. G., & Bafoeva, R. (2023). INGLIZ VA O'ZBEK MAQOLLARING GENDER XUSUSIYATLARI. *World of Science*, 6(5), 167-169.
34. Pirmanovna, N. G., & Bafoeva, R. (2023). O'ZBEK VA INGLIZ MAQOLLARINING JAMIYATDAGI TUTGAN O'RNI VA ULARNING O'RGANILGANLIK DARAJASI. *SCIENTIFIC APPROACH TO THE MODERN EDUCATION SYSTEM*, 2(14), 74-76.
35. Xasanova, S., & murodova, D. (2023). REPRESENTATION OF THE SYSTEMIC RELATIONS OF RUSSIAN VOCABULARY IN PROVERBS AND SAYINGS. *Modern Science and Research*, 2(10), 276–280. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/24346>
36. Xasanova, S. (2023). USING EXPRESSIVE VOCABULARY IN RUSSIAN PROVERBS. *Modern Science and Research*, 2(10), 403–408. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/25248>
37. Баходировна, Х. Ш. (2023). Гендерная Лексика В Русском Языке. *International Journal of Formal Education*, 2(11), 324–331. Retrieved from <http://journals.academiczone.net/index.php/ijfe/article/view/1505>
38. Hasanova, S. (2023). SYSTEM RELATIONS IN THE RUSSIAN LANGUAGE VOCABULARY. *Modern Science and Research*, 2(9), 72–74. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/23900>
39. Shokir o'g'li, S. U. (2023). MAHALLANING JAMIYAT IJTIMOYIY TARAQQIYOTIDAGI O'RNI. *Научный Фокус*, 1(6), 369-371.
40. O'gli, S. U. S. (2023). ELUCIDATION OF ISSUES OF THE HISTORY OF BUKHARA GUZARS IN OA SUKHAREVA AND HER STUDIES. *International Journal Of History And Political Sciences*, 3(11), 30-35.
41. Shokir o'gli, S. U. (2023). The Essence of State Policy on Youth in New Uzbekistan. *American Journal of Language, Literacy and Learning in STEM Education* (2993-2769), 1(9), 554-559.
42. Shokir O'g'li, S. U. (2023). THE IMPORTANCE OF THE MAHALLA SYSTEM'S REFORMATIONS IN NEW UZBEKISTAN. *International Journal Of History And Political Sciences*, 3(10), 25-30.
43. Berdiyeva, S. U. (2023). THE DIFFERENCE BETWEEN GAME-BASED LEARNING AND GAMIFICATION [Data set]. Zenodo.
44. Berdiyeva, S. (2023). BENEFITS OF TEACHING FOREIGN LANGUAGES THROUGH ROLE-PLAYING ACTIVITIES. *MODERN SCIENCE AND RESEARCH*, 2(10), 723–729. <https://doi.org/10.5281/zenodo.10034991>
45. Berdiyeva, S. (2023). A STORY-BASED APPROACH IN TEACHING FOREIGN LANGUAGE. *Modern Science and Research*, 2(10), 262-266.

46. Tursunova Marxabo Raxmonovna. (2023). USING EFFECTIVE METHODS IN THE PROCESS OF TEACHING ENGLISH GRAMMAR. IMRAS, 6(7), 183–189. Retrieved from <https://journal.imras.org/index.php/sps/article/view/479>
47. Tursunova Marxabo Raxmonovna. (2023). Parallel Korpus Prizmasi Tahlilida Tarjima Asarlarda Asliyati Muammosi Tadqiqi . American Journal of Language, Literacy and Learning in STEM Education (2993-2769), 1(9), 311–317. Retrieved from <http://grnjournal.us/index.php/STEM/article/view/1505>
48. Tursunova, M. (2023). USING INDUCTIVE AND DEDUCTIVE APPROACH IN TEACHING GRAMMAR. Modern Science and Research, 2(10), 11-17.
49. Jabborova, A. (2023). THE CATEGORY OF VOICE IN ENGLISH GRAMMAR. Modern Science and Research, 2(7), 430–433. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/22266>
50. Jabborova, A. (2023). WHAT IS DESIGN THINKING?. Talqin Va Tadqiqotlar, 1(13). извлечено от <http://talqinvatadqiqotlar.uz/index.php/tvt/article/view/941>
51. Jabborova, A. (2023). THE CATEGORY OF PERSON IN ENGLISH GRAMMAR. Modern Science and Research, 2(8), 367–375. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/23467>